

**ERKIN A'ZAMOVNING "SHOIRNING TO'YI" ASARIDA BOSH
QAHRAMON FOJEASI**

Gavharoy QO'LDOSHEVA

Namangan viloyati

gavharoyqoldosheva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin A'zamovning "Shoirning to'yi" qissasidagi bosh qahramon — Otashqalb shoir timsolida o'zbek xalqining ma'naviy fojiasi, qatag'on yillari ruhiyati va zamon zulmi ostida ezilgan ijodkor taqdiri yoritiladi. Asarda sovet mafkurasi davridagi adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, vijdotsizlik kabi illatlar badiiy ifodasini topgan. Qissa retrospektiv syujet asosida qurilgan bo'lib, unda ikki davr — sho'ro davri va oshkoralik yillaridagi voqealar uyg'unlikda tasvirlanadi. Muallif o'ziga xos uslubda ramziy obrazlar, ijtimoiy-tarixiy fon va badiiy umumlashtirish orqali insoniyat qadri, haqiqat va adolat g'oyalari ustuvorligini ilgari suradi. Otashqalb shoir obrazi orqali yozuvchi Cho'lpon, Usmon Nosir kabi tarixiy shaxslar taqdiriga ishora qilib, milliy o'zlik va erkin fikr uchun kurash mavzusini teran badiiylilikda ochib beradi. Asarda davr va makon, insoniylik va pastkashlik, fidoyilik va munofiqlik o'rtasidagi kurash yuksak badiiy mahorat bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Erkin A'zamov, Shoirning to'yi, Otashqalb shoir, qatag'on, ma'naviy fojea, adabiy obraz, ikkiyuzlamachilik, tarixiylik, badiiylilik, Cho'lpon, Usmon Nosir, sovet mafkurasi, ramziy tasvir, haqiqat, adolat, milliy uyg'onish, o'zbek adabiyoti.

Erkin A'zamov qissalarida zamon va makon munosabatlari o'zaro mutanosiblikda ro'y-rost ochib berilgan. Uning qissalarida inson ma'naviyati va taqdiri masalalarini hayot hodisalariga o'ziga xos yondashish orqali tadqiq etish tendensiyasi o'z ifodasini topgan. Yozuvchi yaratgan qahramonlar asli hayotdagi real kishilar bo'lsa ham, saralangan va umumlashgan obrazlardir. Davr zulmiga

uchrab, o'zga yurtlarda azob va xo'rliklarga mahkum etilgan bir inson taqdirining achinarli fojeasi “Shoirning to'yi” qissasidagi Otashqalb shoir obrazi orqali katta mahorat bilan yoritib berilgan.

Qissada Otashqalb shoirning xotira to'yi munosabati bilan bir inson umrining o'tmishiga sayohat qilinadi. Inson umri davomidagi munosabatlar, mehr-oqibat, yaxshilik va yomonlikning tantanasi, umri davomida xatolar girdobi pardasida yashab kelgan ayollar, meshchanlikka yuz tutgan tuzumning ayanchli oqibatlari ifodalanadi.

. . . Shoirona iste'dod — bir qaraganda olamga hayrat ko'zi bilan boqish sa'nati va o'zgalarni hayratga solish san'ati bo'lib ko'rinadi, yana bir qaraganda el dardiga oshno bo'lish qobiliyati bo'lib tuyuladi.

Iste'dod — bu avvalo did, yaxshi did egasi bo'lish qobiliyati, deguvchilar ham bor. Iste'dod — bepoyon tushuncha.¹

Yozuvchi Otashqalb shoir obrazi orqali bema'ni g'oyalar – adolatsizlik, munofiqlik, shafqatsizlik, zo'ravonlik asosiga qurilgan inson hayoti va qalbini toptab, undagi tabiiy, boqiy qadriyatlarni mahv etishga qaratilgan o'sha davr fojeasini hech qanday rangli bo'yoqlarsiz ko'z oldimizda gavdalantirgan. Qissani o'qish davomida yozuvchi bu qissani katta mahorat va kuchli jasorat ko'rsatganini guvohi bo'lamiz.

“Shoirning to'yi” qissasi adib ijodida o'ziga xos o'rin tutgan asar hisoblanadi. Asar yaqin o'tmishda yashab ijod etgan va qatag'on qilingan taniqli shoir taqdiriga bag'ishlangan. Asar syujetining asosiy voqealari mustaqillik ostonasidagi “Oshkoralik yillari”da bo'lib o'tadi. Bir vaqtlar xalq dushmani sifatida qatag'on qilingan otashqalb shoir zamona zayli bilan oqlanadi va uni tuhmat bilan qamatgan safdoshlari uning nomini ko'klarga ko'tarib maqtaydilar, tavalludining nechadir yillik yubileyini tantana bilan nishonlaydilar. Xalq ko'zida go'yoki uni kechagina yomonlab turib, bugun millat qahramoni sifatida ulug'laydilar. Ana shu vaziyatda xotira tadbiriga Otashqalb shoir qo'l oyoqsiz, tilsiz, nogironlar aravachasida tashrif buyuradi, biroq uni hech kim tanimaydi.

¹ Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – B.10.

Otashqalb shoir “do‘st”larining kechagi va bugungi gaplari, ikkiyuzlamachiligidan qattiq o‘kinadi, jahli chiqadi. Asar syujeti retrospektiv bo‘lib, ikki davr – qatag‘on davri va erkinlik shabadasi esa boshlagan yillardagi voqealarni parallel ravishda hikoya qilib boradi. Har ikkala davrning asl voqealariga xolis guvoh esa o‘sha qatag‘on qurboni bo‘lgan Otashqalb edi. “Asar yechimida kutilmagan tarzda fojiaga nuqta qo‘yiladi: “O‘sha kecha shaharda ikki sirli o‘lim hodisasi yuz berdi. Biri, Oqsoqol shoirning o‘z dachasida yurak xuruji va “qo‘l-oyoqsiz tasqara bir vujuddan” bo‘g‘ziga tushgan zarba natijasida vafot etishi. Ikkinchisi, muallif Otashqalbga nisbatan “o‘lim” so‘zini qo‘llamaydi. Bu ma‘no o‘sha olag‘ovur vaziyatdan, nogironga tegishli hujjat va g‘alati ashyolardan anglashilardi. Umuman, ushbu qissa qatag‘on mavzusida o‘zbek adabiyotida yaratilgan sara asarlardan biri, Otashqalb shoir esa achchiq qismatli shaxs fojiasining realistik ifodasidir.

Ayrimlar badiiy asarlarning ta’sirchanligiga sabab ularda qiziqarli voqealarning tasvirlanganligi deb o‘ylashadi. Holbuki, qiziqarli voqealarning o‘zi hali asarning badiiyligini to‘la ta’minlay olmaydi. Axir, har bir odamning boshidan qanchadan qancha qiziq voqealar, sarguzashtlar o‘tgan. Lekin ular qog‘ozga tushirilsa, badiiy asar bo‘lib qolavermaydi-ku?! Ko‘rinadiki, badiiy adabiyotni ilmiy adabiyotdan farqlab turadigan narsa uning qiziq voqealar tasviriga bag‘ishlangani emas. E’tibor qiladigan bo‘lsak, biz shu vaqtga qadar o‘qigan asarlarimizda faqat bayonchilikning o‘zi emas, yozuvchi mahorati orqali asarning ta’sirchanligi ortadi.

Demak, adabiyot adibning fikriga uning his-tuyg‘u va sezimlari ham aralashgani uchun boshqalarga ta’sir qiladi. Biror joyda biror kishi bilan bo‘lgan voqea shunchaki aytib berilsa, u jo‘ngina axborot bo‘lishi mumkin, lekin adabiyot bo‘lolmaydi.

“Shoirning to‘yi” qissasi “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” bilan go‘yoki Hasan-Husan, yalakatmag‘iz. “Shoirning to‘yi” qissasidagi voqealar sosializmning so‘nggi yillarida ro‘y beradi. Asar imo-ishora, ramz, umumlashmalarga boy. Qatag‘on qilinib, keyinchalik oqlangan Otashqalb

shoirning tavallud to'yi harbiy asirlar tomonidan qurilgan mashhur koshonada o'tyapti. Katta zalda hamma jamuljam: Otashqalbni qamatishtga "munosib" hissa qo'shgan Oqsoqol shoir, Ajoyib domla, Ma'shuqaxonim; mavjud mafkura tizginini mahkam tutib turgan Ma'shuqaxonim; Tepakal, Temiryo'lchi, Jiyanbeka, Zahmatkash olim, Jasur shoir, Darbon, Ta'qibkor, Otashqalb shoir (ruhi). Qissadagi har bir obraz umumlashma xususiyatga ega. Muallif Otashqalbni yo'q qilgan Oqsoqol shoir degandek esa-da, aslida, Otashqalbni mahv etganlar ko'p bo'lgan. Erkin A'zam Oqsoqol shoir obrazini chizar ekan, Otashqalbning qamalishiga hissa qo'shganlarning qilmishini o'rni-o'rni bilan ko'rsatib boradi. Ajoyib domla ham umumlashma timsol. O'tgan asrning o'ttiz-qirquinchi yillaridagi qatag'onlarga shoiru adiblar qatori ana shunday domlalar, amaldorlar, san'atkorlar hissa qo'shgani ma'lum.

Erkin A'zamov "Shoirning to'yi" qissasi haqida quyidagi fikrni aytadi:

" – Bu asarni qo'lyozmasini o'qigan ehtiyotkorroq bir do'stim "O'zini bilgan-bilmagan birortasi g'alva qo'zg'ab yurmasmikin?" degandek ishtiboh bildirgan edi. Shu gap sababli, qo'lyozmani talay yil tashlab qo'ydim. Ushbu kitobni nashrga tayyorlayotganimda, ittifoqo, ish stolim g'aladonidan o'zi chiqib qoldi. O'qib ko'rdim, nazarimda – " to'yga bergudek". Albatta, asardagi Voqealar osmondan olib yozilmagan, ul-bul turtki bo'lgan. Albatta, o'sha davr adabiyotiga xos jangariroq bir ruh bor unda. Lekin badiiy asar kimnidir ranjitishi yoki fosh etish maqsadida yozilmasligi ma'lum. Shunday deb o'ylagan odam esa - yo adabiyotdan yiroq, yo... o'zidan ko'rsin. Qolaversa, yaqinda bu qo'lyozma bilan tanishgan yana bir do'stimning gapi nash'a qildi, ham dalda bo'ldi. "Nega shu choqqacha chiqarmay yuribsiz? – dedi u. – Badiiy asar-ku bu!"²

Mustaqillik yozuvchilarga ijodiy erkinlik, davrni to'g'ri talqin qilish imkonini berdi. Adabiyotda yozuvchiga o'xshagan yangi tiplarni paydo bo'lishi davr taqozosi bilan yuzaga kelishi tabiiy. "Shoirning to'yi" qissasidagi Otashqalb shoirning inson sifatida qaramasdan xo'rlab, hayvoniy munosabatda bo'lishlari uni azoblaydi. Yozuvchi qahramonning ichki olamida kechayotgan kurashlarni juda

²A'zamov E. Kechikayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2002. – B.311

<https://scientific-jl.com/>

ta'sirli qilib ko'rsatib bera olgan. Qissa konflikt odatdagi asarlardagi singari bir xil emas. O'quvchini o'ylashga, mushohadaga chorlaydigan o'rinlar ko'p. Yozuvchi qahramonlarini ichki dunyosini, ma'naviy olamini ochib berishda ularga istic qo'yish orqali ham muvaffaqiyatga erishdi. Ayniqsa, ayollarning uyatsiz va oqibatsiz o'tmishini, beqaror va besamar yoshlik davrini goho hajviy, goho ayovsiz, ochiqdan–ochiq tanqid ostiga oladi. Masalan, Ajoyib domla, Jiyanbeka, Musofir, Yosh shoir, Moviyko'z dilbar (Alvastixonim) , Ma'shuqaxonim, Jasur shoir, Tepakal, Oqsoqol va hokazolarni yoritib berishda qahramonlar o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi.

Asarning qahramoni Otashqalbning o'tmishiga aylangan hayotidan keyin uning xotira kechasini o'tkazish davomida turli xil qiyofadagi insonlar, ularning o'tmishi bilan bog'liq voqea-hodisalar yodga olinadi. Asli Otashqalbning o'limiga sabab bo'lgan kishilar shularning o'zlari. Endi esa uning orqasidan diydiyo qilib o'tiribdi.

Yozuvchi Ma'shuqaxonimning ta'rifini shunday keltiradi: "Oldingi qatordan umri pardozi-andoz deb o'tgan, sochi hamon qop-qora (bo'lgan), yoshligida o'lgudek shayton, jiqilloq bo'lgani ayon ko'rinib turgan chittak bir kampir joyidan turib, uzoq-yaqinga allanechuk zavq va xavsala bilan rosa ta'zim qilib chiqdi

Ma'shuqaxonimning yoshligi erkaklar ko'nglini ovlash bilan o'tgan. O'yin-kulguga o'ch ayol. Yozuvchi bu ayolning yengil tabiatliliigi haqida juda tuban fikrlarni yozadi: "O'ziyam she'r yozarmidi, yalla aytarmidi, ishqilib shu doiralarda izg'ib yuradigan bu xonimning o'sha kezlardayoq ohori ketib bo'lgan, uni o'pmagan, quchoqlamagan shoir-u shuaro kam edi"³.

Qissadagi o'ziga xos obrazlardan biri Ma'shuqaxonimdir. Sho'ro davrida, ayniqsa, milliy respublikalarda mafkuraviy ishlarga alohida e'tibor berilgan. Kommunistik mafkurani mustahkamlash uchun milliy qadriyatlar atayin oyoqosti qilingan. Mafkura masalalari bilan yengiltak, milliy ildizdan uzilib qolgan kishilar shug'ullangan. Mana, qatag'on qilingan, xalq talabi bilan nomi, asarlari oqlangan

³ A'zamov E. Kechikayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2002. – B.320.

<https://scientific-jl.com/>

Otashqalb shoir to'yi o'tkazilyapti. Hukumat nomidan to'yboshchilik qilayotgan Ma'shuqaxonim: "Qani, domlaning o'zlari keldilarmi?", deb qolsa bo'ladimi?! Hamma bir-biriga qaragan, hamma xijolat".

Shoirning to'yida hamma to'lib-toshib o'tiribdi, aytilayotgan har bir gap qalblarda aks-sado beryapti. Birgina Ma'shuqaxonim beparvo, xayoli boshqa yoqda. U zalda o'tirganlar orasida Tepakalni – sobiq jazmanini ko'rib qoladi. Xayol qurg'ur uni boshqa yoqlarga, shahvoniy xotiralar bag'riga olib ketadi. Jasur shoir, Temiryo'lchi kuyib-yonib haqiqatni tiklayaptilar; Oqsoqol shoir, Ajoyib domlalar zo'r berib kechagi ayblarini xaspo'shlashga urinmoqdalar; Ma'shuqaxonim esa butunlay boshqa narsalarni o'ylab o'tiribdi.

Qissada Jiyanbeka, Otashqalb shoirning yoshlikdagi do'sti obrazlari bor. Jiyanbeka Otashqalbni ko'rmagan, she'rlarining ashaddiy muxlisi ham emas. Hozir shunday vaziyat paydo bo'ldiki, Jiyanbeka katta amalga minib qolishi mumkin. U imkoniyatni boy bermaydi. Otashqalbning so'ngan yulduzi qayta porlay boshlagach, uning do'stlari, jabr chekkanlar soni ortib qoladi. Anjumanda nogiron, abgor Otashqalb shoir timsoli paydo bo'ladi. Aslida, yig'ilganlarga Otashqalbning keragi yo'q. Ular Otashqalbga bag'ishlangan tadbirni o'tkazish uchungina kelgan, xolos.

Tantanali tadbir chog'i Jasur shoir va Oqsoqol shoir avlodlari aro kurash ketadi. Mana shu hodisa hayotda ro'y bergan. Ulug' shoir nomidagi teatrdan kechagi avlod bilan bugungi yoshlar o'rtasida ro'y-rost kurash bo'lib o'tgan. Anjumanni Ma'shuqaxonimu boshqa xonimchalar boshqargan. O'sha yig'ilishda shakllanayotgan avlod o'z imkoniyatlarini bus-butun namoyon etgan edi.

Qissada Moviyko'z dilbar obrazi haqida ham tuban va salbiy fikrlar aytiladi: "Moviyko'z dilbar... Ana o'tiribdi Ma'shuqaxonimning biqinida. Basharasi burishib, bujmayib ketgan, bir zamonlar Otashqalbni entiktirgan moviy ko'zlar endi xira tortib, tussiz bo'lib qolgan. Alvasti! Saksonga kirganda ham buni e'tirof etish erga, erkak kishiga og'ir, albatta. Lekin umr oxirlaganda, ayniqsa mana bunday, qiyomatli ruh oldida, haqiqat oldida yolg'iz qolganda borini xolisonlillo bo'yinga olmoq farz: ikki do'stning birodarligiga g'animlik ponasini urgan, ularni

qon-qattol raqibga aylantirgan mana shu dovdir go'zal, mana shu alvasti emasmi?"⁴

Asarda Otashqalbning do'sti Oqsoqol obrazi ham berilgan. U atrofidagi bir to'da munofiqlarning nayranglariga o'ralashib do'stiga xiyonat qilgan. Do'stining "xalq dushmani" degan tavqi-la'natni olishga ham Oqsoqol va uning atrofidagilar sababchi bo'lgan. Endi esa uyalmasdan shoirning to'yi yubiley kechasini o'tkazmoqda. Minbarga chiqqan bir guruh "soxta do'st va yaqinlar"- asli jinoyatchilar. Otashqalbning o'limiga sabab bo'lgan, uning o'rnini egallagan uyushgan guruh.

Yozuvchi Erkin A'zamov asarda bosh qahramon yaratish muammosini an'anaviylikdan olib qochdi. Asarning bosh qahramoni Otashqalb ko'rinsada uning o'zi, nutqi sahnada ko'rinmaydi. Otashqalb bilan bog'liq muammolar, voqealar, xotiralar uning do'sti Oqsoqol tomonidan aytiladi. Oqsoqolning xotiralari butun bir asar syujetini xronikasi tarzda ko'zdan o'tkazadi.

Yozuvchi qahramonlarni minbarga olib chiqish yo'li bilan butun bir o'tmishini kitobxonga ochib berishga erishadi. Otashqalbning o'limiga sabab bo'lgan kimsalar endi uning yaqinlariga aylanishga harakat qilgan yuzsiz pastkash kimsalar edi. Minbarga so'zga chiqqan yosh jasur shoir ularning yuz pardasini ochib tashlaydi. Oqsoqolning sirli o'limi ham unga berilgan Allohning jazosi edi. Xullas, qilmishlar hech qachon javobsiz qolmaydi. Yozuvchi qahramon yaratishda ko'proq kitobxonning o'zini yordamga chaqiradi. O'quvchini o'ylashga, fikrlashga majbur etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qissaning tagma'nosida tarixiy siymolar, hayotdagi real hodisa narsa va joy nomlariga muayyan ishora seziladi. Bunda tarixiylik tamoyili ifodasi ancha so'nik bo'lib, umumiy fon vazifasini bajaradi va muallifning badiiy tafakkuri qatlariga singib ketadi, tasvirning yaxlit silsilasida esa adib ijodiy hissasi, kashf etish salohiyati yorqin va ustuvordir. Bu o'rinda Otashqalb bilan taqdirdosh ijodkorlar Usmon Nosir va Cho'lpon nazarda tutilmoqda.

⁴ A'zamov E. Kechikayotgan odam. – Toshkent: Sharq, 2002. – B 328

<https://scientific-jl.com/>

Adib yangi obraz yaratishda bu ikki shoirga xos ayrim xususiyatlardan sintez yo'li bilan prototip sifatida ijodiy foydalanadi. Zero, qahramon umrining qator jihatlari bilan qatag'onga uchragan yuqoridagi shoirlar qismati o'rtasida muayyan o'xshashlik, yaqinlik bor, lekin aynan shular deb bo'lmaydi.

Bu o'xshashlik Usmon Nosir shaxsiyati, harakat-intilishlari doirasida, Cho'lponning esa ijodi, muayyan asarlariga munosabat aspektida ko'proq aks etadi.

Yozuvchining "Shoirning to'yi" asarda bosh qahramon yaratish muammosini an'anaviylikdan olib qochdi. Asarning bosh qahramoni Otashqalb ko'rinsada uning o'zi, nutqi sahnada ko'rinmaydi. Otashqalb bilan bog'liq muammolar, Voqealar, xotiralar uning do'sti Oqsoqol tomonidan aytiladi. Oqsoqolning xotiralari butun bir asar syujetini xronikasi tarzda ko'zdan o'tkazadi.

"Shoirning to'yi" asaridagi bosh qahramon masalasi tadqiq etilgan. Asarda davr zulmiga uchrab, o'zga yurtlarda azob va xo'rliklarga mahkum etilgan bir inson taqdirining achinarli fojeasi Otashqalb shoir timsoli orqali katta mahorat bilan yoritib berilgan. Shoirning xotira to'yi munosabati bilan o'tmishga sayohat qilinadi. O'tmishda shoir bilan bir vaqtda yashagan bir necha turli qiyofadagi insonlarning asl qiyofasi ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zamov A. Haqqulov I. Mas'ul so'zga mas'ullik. Badiiy so'z shukuhi. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987 – 263 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1978. – T. 1. – 416 b; 1979. –T. 2. – 445 b.
3. Arastu. Poetika. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 352 b.
4. Adabiy tur va janrlar. II tomlik. 2-tom. O'zR FA. -T: "Fan" nashriyoti. 1992 y.
5. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 126 b.

6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. –560 b.
7. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif, janr, xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2015. – 256 b.
8. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2007. –536 b.
9. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011. – 87 b